

УДК: 72.03

TOSHKENT “SITI”

Assistent Utanova Diyora Abdumanobovna
Toshkent arxitektura qurilish universiteti, O'zbekiston
E-mail: bek_diyora@mail.ru

Annotatsiya Maqolada Toshkent shahar xududida qurilayotgan va qurilish jarayonida bo'lgan “Siti”larning qurilish bosqilari, tarkibiy qismlari, joylashuvlari haqida qisqacha ma'lumotlar bayon etilgan.


Kalit so'zlar: Toshkent, “Siti”, “Akay City”, “Minerva City”, “Olmazor City”, “City Life”, qurilish, turar-joy, xonadon, biznes markaz, joylashuv, arxitektura, osmono'par binolar.

Аннотация Статья содержит краткую информацию об этапах строительства, компонентах и местах расположения строящихся «Сити» в Ташкенте.

Ключевые слова: Ташкент, “Сити”, “Akay City”, “Minerva City”, “Olmazor City”, “City Life”, строительство, жилой-дом, квартира, деловой центр, местоположение, архитектура, мечеть, кладбище, небоскребы.

Annotation The article contains brief information about the stages of construction, components and locations of the "City" under construction in Tashkent.

Keywords: Tashkent, “City”, “Akay City”, “Minerva City”, “Olmazor City”, “City Life”, construction, residential building, apartment, business center, location, architecture, mosque, cemetery, scrapers.



1-rasm. Toshkent “SITI”lari.

Zamonaviy Toshkent osmono'par turar-joy binolariga ega “Siti”lar bilan rivojlanib bormoqda. Tasdiq tariqasida shaharda qurilayotgan va qurilish jarayonida bo'lib turgan o'ndan ortiq “Siti”larni ko'rsatish mumkin (1-rasm). Nafaqat Toshkent, balki boshqa shaharlar xam, “Samarqand Siti”, “Nurafshon Siti”, “Nukus Siti” kabi nomlar bilan ataladigan o'z sitalariga ega bo'lib bormoqda. Quyida “Akay City”, “Minerva City”, “Olmazor City”, “Labzak Park City”, “City Life Garden” majmualarining ta'rifi keltiriladi.

“Akay City” Mirzo Ulug'bek tumani, Loshkarbegi va Qori Niyoziy ko'chalari oralig'ida joylashgan. Undagi 35 qavatli zamonaviy turar-joy majmuasi etti blokdan iborat bo'lib, 16

000m² er maydonida barpo bo'lgan. Majmua o'zida 860 ta 2,3,4 xonali xonadonlarni jamlagan. Xonadonlar 70m² dan 120 m² gacha bo'lgan satxga ega. Xonadonlar “Aqlli uy” innovatsion tizimi bilan ta'minlangan. Binolarning birinchi, ikkinchi qavatlarida savdo do'konlari, kafelar, restoran, go'zallik salonlari va turli tashkilotlarning ofislari joylashgan. Tarzlarni pardoqlashda Sinter Flex plitkalaridan keng foydalanilgan. Plitkalar mexanik va kimyoviy ta'sirlarga, olovga, sovuqqa chidamlilik hamda mustaxkamlik xususiyatiga ega (2-rasm).



2-rasm. “Akay City”.


“Minerva City” Yangi-Yul tumani, O'zgarish qishlog'i o'rnida, Alisher Navoi massivida joylashgan bo'lib, xududi 2100 m² ni tashkil etadi. Loyixa “shahar ichida shahar” kontsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan. Turli satx va tuzilishli 15 000 ta xonadonga ega. Bugungi kunga qadar “A” sektorida xar biri 16 qavatli 11 ta turar-joy binosi, 2 qavatli savdo va 3 qavatli ofis binolarining beshta bloki jahon andozalari asosida qurilish davom etmoqda. Majmuaning “E” sektorida 12 ta turar-joy binosi qurilishi boshlandi. Majmua xududida IT-park, xalqaro universitet, maktab, talabalar yotoqxonasi, kutubxona, savdo markazi, yirik golf maydonchasi mavjud. Uning markazida 40 qavatli egizak osmono'par bino “Iconic Towers premium” xonadonlari joylashgan. Xududning 60% ni yashil maydon tashkil etadi (3-rasm).



3-rasm. “Minerva City”.

“Olmazor City” Kichik xalqa yo'li bo'yi hamda Qichqiriq kanali soxilidagi 23,5 gektar xududda joylashgan, 28 ta zamonaviy turar-joy binolaridan iborat. Binolari 9 qavatdan 30 qavatgacha bo'lgan balandliklarga ega. 2124 ta xonadon sig'imi, 2100 m² ni tashkil etadi. Turli satxlarga va tuzilishga ega xonadonlar 1,2,3,4,5 xonalidir. Ularning xar biri 39-125 m² satxlarga ega. Majmua tarkibiga savdo-sotiq kompleksi, bog'cha, maktab muassasalari, bolalar maydonchasi

alari va dam olish maskanlari kiradi. Xududning 80% qismini yashil maydon qamragan (4-rasm).



4-rasm. “Olmazor City”.

“Labzak Park City” Shaharning Shayxontoxur tumani, Labzak ko'chasi bo'yida joylashgan turar joy majmuasidir. 15 qavatli turar-joy qurish rejalashtirilgan. To'rtta blokdan iborat, 35 910m² er maydoniga ega. Majmuada 1,2,3 xonali xonadonlar o'z terassalariga ega. Xonadonlarning har biri 43m² dan 109 m² gacha bo'lgan satxni tashkil etadi. Binolarning quyi qavatlarida savdo do'konlari, kafe, restaran, go'zallik saloni mavjud, suzish xavzasi va erosti avtoturargohi tashkil etilgan. Loyixa “Parkdagi shahar” kontsepsiyasi asosida amalga oshirilmoqda. 2024-yil 2-choragida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan (5-rasm).



5-rasm. “Labzak Park City”.

“City Life Garden” shaharning Yakkasaroy tumani, Muqimi 2/1 mavzesida joylashgan 10 qavatli turar joy majmuasidan iborat. Uning to'qqizinchi va o'ninchi qavatlarida 271 m² terassa va uch qavatli 122,4 m² penxauslari mavjud. Majmuaning xonadonlari 2,3,4,5 xonali bo'lib, birinchi qavatda savdo kompleksi, go'zallik saloni, kafe, sport va o'yin maydonchalari, dam olish maskanlari mavjud. Loyixa “avtomabilsiz hovli” konsepsiyasi asosida amalga oshirilgan. Shu bois erosti qavatda 65 ta, erustida 35 ta mashinaga mo'ljallangan keng avtoturargoh qurilgan (6-rasm).



6-rasm. “City Life Garden”.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Toshkent uzoq tarixga ega shaharlar qatoriga kirishi bilan birga unda qurilayotgan osmono'par binolarni o'zida jamlagan "Siti"lar, a'naviy mahallalarning innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan qulay sharoitli shaharga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тошкент, энциклопедия, Тошкент, 2009.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tashkent_City
3. <https://www.kun.uz/news/>
4. <https://domtut.uz/nedvizhimost/>
5. <https://yandex.ru/images/>